

AUDITNI AVTOMATLASHTIRISH: AMORTIZATSIYA HISOBI UCHUN RAQAMLI YONDASHUV

Annotatsiya. Ushbu maqolada auditorlik jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish uchun ishlab chiqilgan dasturiy ta'minotning funksiyalari va afzalliklari tahlil qilinadi. Dastur Excel formatidagi ma'lumotlarni yuklab, sanalarni tahlil qilish, amortizatsiya hisob-kitoblarini avtomatik bajarish va natijalarni saqlash kabi vazifalarni bajaradi. Bu auditorlarga hisob-kitoblarini tezkor va aniq bajarish, audit xavfini kamaytirish va ma'lumotlarning shaffofligini oshirish imkonini beradi. Mazkur dastur moliyaviy hisobotlarning aniqligi va sifatini oshirish orqali davlat normativ talablariga ham mos keladi. Ushbu maqolada raqamlashtirishning audit jarayonidagi ahamiyati va samaradorligi batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: Audit jarayoni, raqamlashtirish, avtomatlashtirish, amortizatsiya hisobi, auditorlik xavfi, moliyaviy hisobot, shaffoflik, ma'lumotlarni saqlash, normativ talablar.

Kirish

Bugungi kunda iqtisodiyotning barcha sohalarida, xususan, audit jarayonlarida raqamlashtirish jarayoni keng tarqalmoqda. Audit jarayonlarini raqamlashtirish, avvalo, inson omilidan kelib chiqadigan xatolarni kamaytirish, ma'lumotlarni tahlil qilish tezligini oshirish va auditning samaradorligini yaxshilash imkonini beradi. Ushbu jarayonni rivojlantirish, o'z navbatida, audit sifatini oshirish, audit xavfini kamaytirish va audit ishlarining shaffofligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Auditorlik sohasida raqamlashtirishning afzalliklari haqida fikr bildirgan D'yakonov o'z tadqiqotida quyidagi holatni ta'kidlaydi: "audit jarayonida raqamlashtirish texnologiyalaridan foydalanish orqali audit xavfini sezilarli darajada kamaytirish mumkin, chunki bu texnologiyalar katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor va aniq tahlil qilish imkoniyatini beradi" (D'yakonov, 2000). Shuningdek, D'yakonov auditorlik xavfini tahlil qilishda axborot texnologiyalaridan foydalanish auditning samaradorligi va ishonchlilagini oshirishini ham qayd etadi.

Bundan tashqari, raqamlashtirishning audit uslublariga ta'siri haqida tadqiqot olib borgan Frykenberger quyidagilarni ta'kidlaydi: "Raqamlashtirish audit metodikasi va audit sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatib, auditorlarning ko'p vaqt sarflashini talab qiluvchi jarayonlarni avtomatlashtirish orqali ish unumdorligini oshiradi" (Frykenberger, 2019). Uning fikriga ko'ra, raqamlashtirish natijasida auditorlar o'z vaqtlarini tahlillarni chuqurroq o'rganish va aniqlik darajasini oshirish uchun sarflash imkoniyatiga ega bo'lishmoqda. Bu esa audit jarayonida sifat va samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Audit jarayonini raqamlashtirish amaliyoti moliyaviy audit va moliyaviy hisobotlarda ham muhim o'rinni tutadi. Raqamlashtirish orqali ko'plab texnik jarayonlar avtomatlashtirilib, inson omili ta'sirini kamaytirish imkoniyati yaratiladi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlar, jumladan, D'yakonov va Frykenberglarning ishlari raqamlashtirish orqali audit jarayonining qanday takomillashishi mumkinligini tasdiqlaydi. Ushbu tadqiqotlar asosida yaratilgan dastur esa, audit jarayonini avtomatlashtirish orqali auditorlarga qulaylik yaratish, ma'lumotlarni tezkorlik bilan qayta ishslash va natijalarni shaffof tarzda taqdim etishga mo'ljallangan.

Raqamlashtirilgan audit jarayonida ma'lumotlarni tahlil qilish, ularni tizimli qayta ishslash va ma'lumotlar omboriga saqlash, audit samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, audit maqsadlarini to'laqonli amalga oshirish va auditorlik jarayonidagi tahlillarni xatolardan himoya qilish uchun amaliyotda raqamlashtirilgan texnologiyalarni joriy etish lozim bo'lmoqda. Bu

maqola audit jarayonini raqamlashtirish va avtomatlashtirish orqali amortizatsiya hisob-kitoblarini samarali va aniq bajarishga qaratilgan dasturiy ta'minotni tahlil qilish va uni amaliyotda qanday qo'llash mumkinligini ko'rsatadi.

1. Audit jarayonini raqamlashtirish

Audit jarayonini raqamlashtirish uchun ishlab chiqilgan ushbu dasturiy ta'minotning asosiy maqsadi – audit jarayonlarida inson omilidan kelib chiqadigan xatolarni kamaytirish va tahlil qilishning tezkorligini oshirishdir. Shuningdek, bu dastur moliyaviy hisobot va ma'lumotlarni avtomatik tahlil qilish orqali auditorlik ishlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Raqamlashtirish jarayoni ayniqsa moliyaviy auditda joriy etilgan normativ hujjalarga muvofiq muhim hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunida buxgalteriya hisobotlari va audit jarayonlarida avtomatlashtirilgan hisobot va hisob-kitob tizimlarini qo'llashning zarurligi ta'kidlangan. Ushbu qonunda belgilanganidek, buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy ma'lumotlarni tezkor qayta ishlashda raqamlashtirilgan dasturlar va axborot texnologiyalarini orqali tahlil jarayonlarini oshirish auditorlik ishlarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi (O'zbekiston Respublikasi, 2021).

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunida auditorlik faoliyatini raqamlashtirish va yangi axborot texnologiyalarini qo'llash orqali audit sifatini oshirish maqsadi qayd etilgan. Bu qonunga ko'ra, auditorlar moliyaviy hisobotlar va ular bilan bog'liq ma'lumotlarni raqamlashtirish orqali hisob-kitoblarning tezkorligini ta'minlashi, ularning aniq va ishonchli bo'lishini nazorat qilishi lozim (O'zbekiston Respublikasi, 2022). Ushbu normativ talablarga javoban ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot audit jarayonidagi tahlillarni, xususan amortizatsiya hisob-kitoblarini avtomatlashtirish orqali moliyaviy hisobotlardagi ma'lumotlarning sifatini oshirishni maqsad qilgan.

Shunday qilib, ushbu dastur moliyaviy tahlil va audit jarayonlarini optimallashtirish uchun quyidagi maqsadlarni o'z oldiga qo'yadi:

1. Audit xavfini kamaytirish: Audit jarayonida inson xatosini kamaytirish va xavfsizlikni ta'minlash. Auditorlar tomonidan amalga oshiriladigan hisob-kitoblarni avtomatlashtirish orqali audit jarayonida xatoliklar soni kamayadi. Bu esa auditning ishonchliligini ta'minlaydi.

2. Hisob-kitoblarning tezkorligi: Raqamlashtirilgan audit jarayonlari orqali auditorlar moliyaviy hisobotlarni tezkor tarzda qayta ishlash va tahlil qilish imkoniga ega bo'ladilar. Ushbu dastur orqali amortizatsiya hisobi va boshqa moliyaviy hisob-kitoblar tezkor amalga oshiriladi, bu esa audit jarayonini samarali qiladi.

3. Moliyaviy ma'lumotlarning shaffofligini oshirish: Dastur yordamida yaratilgan ma'lumotlar raqamli formatda saqlanadi va avtomatik ravishda qayta ishlanadi, bu esa audit jarayonining shaffofligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, ushbu jarayon orqali auditorlik jarayonlaridagi har bir bosqichni tizimli tarzda saqlash va kelajakda ko'rib chiqish imkoniyati yaratiladi.

4. Amortizatsiya hisob-kitoblarining avtomatlashtirilishi: Moliyaviy hisobotda ko'rsatilgan aktivlarning qoldiq qiymatini yil oxiriga qadar aniq hisoblash uchun amortizatsiya hisobi avtomatlashtiriladi. Bu esa moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta'minlashda muhim omil bo'lib, raqamlashtirilgan audit jarayonida moliyaviy holatning to'g'ri aks etishiga yordam beradi.

5. Normativ talablarga muvofiqlik: Mazkur dastur davlat talablariga mos tarzda ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq ravishda raqamlashtirilgan audit tizimini rivojlantirish maqsadiga ham xizmat qiladi. Ushbu dastur, amaldagi qonunlarga mos keladigan tarzda ishlab chiqilib, raqamlashtirish talablariga javob beradi.

Ushbu dasturiy ta'minotning joriy etilishi orqali audit jarayonining har bir bosqichi raqamlashtiriladi, audit ma'lumotlarini tahlil qilish tezkor amalga oshiriladi va audit sifati oshiriladi. Mazkur dastur o'z oldiga qo'ygan vazifalarni bajarish orqali, davlat talablariga muvofiq moliyaviy hisobotning sifatini oshirish va audit jarayonining samaradorligini oshirishga katta hissa qo'shadi.

2. Dasturning asosiy funksiyalari

Audit jarayonini raqamlashtirish uchun ishlab chiqilgan ushbu dastur, auditorlarga moliyaviy hisobotlar va aktivlar haqidagi ma'lumotlarni tezkor va aniq tahlil qilish imkonini beradi. Dasturda asosiy e'tibor ma'lumotlarni yuklash, sanalarni tahlil qilish, amortizatsiya hisobini avtomatlashtirish va natijalarni saqlash kabi jarayonlarga qaratilgan. Quyida dasturda bajariladigan asosiy funksiyalar, ularning amaliyotdagi vazifalari va kodda aks ettirilgan usullari bat afsil yoritiladi.

a. Excel faylini yuklash va o'qish. Audit jarayonida auditorlarga zarur bo'lgan ma'lumotlarni kiritish va tahlil qilish uchun dastur foydalanuvchidan Excel formatidagi faylni qabul qiladi. Dastur Excel faylini yuklab, undagi ustunlar nomini chiqaradi va fayldagi ma'lumotlarni keyingi tahlil uchun tayyorlaydi.

Bu funksiya yordamida dasturning `read_data` funksiyasi kiritilgan fayldan ma'lumotlarni yuklab, ularni dastur ichida qayta ishlash uchun imkoniyat yaratadi. Faylni yuklash jarayonida ma'lumotlar `pandas` kutubxonasi orqali o'qiladi, bu esa katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor va samarali ishslash imkonini beradi.

b. Sanalarni yil oxiriga qancha oy qolganligini hisoblash. Audit jarayonida moliyaviy yilda qancha vaqt qolganini bilish muhim hisoblanadi. Ushbu funksiya yordamida har bir aktivning qoldiq amortizatsiya muddati yil oxirigacha avtomatik tarzda hisoblanadi. Funksiya kiritilgan sanalarni tekshiradi, ularni tahlil qilib, yil oxiriga qancha oy qolganini qaytaradi.

```
def calculate_months_left(data):
    def months_left(date_str):
        date = pd.to_datetime(date_str, dayfirst=True, errors='coerce')
        if pd.notnull(date):
            current_month = date.month
            months_left = 12 - current_month
            return months_left
        else:
            return None
    date_column = 'дата принятия к бухгалтерскому учету'
    data['Ой қолған'] = data[date_column].apply(months_left)
    return data
```

```

1-rasm. Yil oxiriga qancha oy qolganligini hisoblash

Ushbu funksiya orqali `calculate\_months\_left` har bir aktivning qaysi oyda qabul qilinganligini aniqlab, yil oxiriga qancha oy qolganini hisoblaydi. `months\_left` yordamchi funksiyasi har bir sanani tahlil qilib, 12 oylik yil davomida qancha oy qolganligini qaytaradi va ma'lumotlar bazasida “Ой қолған” ustuniga yozib qo'yadi. Ushbu funksiyaning ishlatilishi auditorlarga aktivlarning foydali muddatini yil oxiriga qadar aniq baholash imkoniyatini beradi.

c. Amortizatsiya hisobini avtomatlashtirish. Dasturda amortizatsiya hisobi auditorlar tomonidan ko'p vaqt talab qiluvchi jarayonlardan biri hisoblanadi. Ushbu funksiya orqali foydalanuvchi kiritgan aktivlarning boshlang'ich qiymati va foydalanish muddatiga asoslanib amortizatsiya qiymatini avtomatik hisoblaydi. Bu auditorlarga hisob-kitoblarni tezkor va aniq bajarish imkonini beradi.

Amortizatsiyani hisoblash jarayonida `calculate\_amortization` funksiyasi aktivlarning boshlang'ich qiymatini va qoldiq foydalanish muddatini hisobga olib amortizatsiya miqdorini hisoblaydi. Ushbu formula aktivning ‘Первоначальная стоимость’ qiymatiga asoslanadi va ‘Срок полезного использования’ (foydali foydalanish muddati) orqali qoldiq qiymatini aniqlashga yordam beradi. Bu orqali auditorlar moliyaviy hisobotlarni to'ldirishda aniq amortizatsiya ma'lumotlarini olish imkoniga ega bo'ladilar.

d. Excel faylga natijalarni saqlash. Audit jarayonida ko'plab ma'lumotlarni tahlil qilish va ular asosida yakuniy natijalarni hujjatlashtirish muhim sanaladi. Ushbu funksiya yordamida dastur natijalarni yangi Excel fayliga saqlaydi, bu esa auditorlarga qayta ishlangan ma'lumotlarni tartibli saqlash va keljakda o'rghanish imkonini beradi.

`save\_to\_excel` funksiyasi dastur tomonidan hisoblangan va tahlil qilingan barcha natijalarini yangi Excel fayliga yozib qo'yadi. Faylga natijalarini yozish jarayoni auditorlik hisob-kitoblarini tartibga solish va saqlashni osonlashtiradi. Bu funksiya auditorlarga ma'lumotlarni hujjatlashtirishda yordam beradi va tahlil natijalarini rasmiylashtiradi.

Dasturning umumiyligi ishlash jarayonini quyidagi asosiy bosqichlarda tavsiflash mumkin:

1. Faylni yuklash: Auditorlar auditga tegishli Excel faylini dasturga yuklaydilar va dastur kerakli ustunlarni tanlaydi.

2. Sanalarning tahlili: Yil oxirigacha qancha oy qolganligini hisoblaydi.

3. Amortizatsiya hisobi: Aktivlarning boshlang'ich qiymati va qolgan foydali muddatga qarab amortizatsiyani hisoblaydi.

4. Natijalarini saqlash: Yakuniy natijalarini Excel fayliga yozadi va auditorlarga hujjatlashtirilgan ma'lumotlar asosida hisob-kitobni rasmiylashtirish imkonini beradi.

Ushbu funksiyalar audit jarayonini avtomatlashtirish orqali ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash, xatolarni kamaytirish va auditorlar uchun qulay ishlash muhitini yaratadi.

1-jadval.

Dastur kodlari va ularning tavsifi

| Kod bo'lagi                             | Tavsifi                                                                                      |
|-----------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------|
| def read_data(file_path): ...           | Excel faylini yuklaydi va ma'lumotlarni dasturga kiritish uchun ustunlarni tanlaydi.         |
| def calculate_months_left(data): ...    | Sanalarni tahlil qilib, yil oxiriga qancha oy qolganligini aniqlash uchun asosiy funksiya.   |
| def months_left(date_str): ...          | Sana formatini tekshiradi va yil oxirigacha oylar sonini hisoblaydi.                         |
| def calculate_amortization(data): ...   | Aktivlarning boshlang'ich qiymati va foydalanish muddatiga qarab amortizatsiyani hisoblaydi. |
| def save_to_excel(data, file_path): ... | Yakuniy natijalarini yangi Excel fayliga yozib saqlaydi.                                     |

Jadvalda dasturdagi har bir asosiy funksiyaning tavsifi keltirilgan bo'lib, ular audit jarayonini raqamlashtirish va avtomatlashtirishda qanday vazifalarni bajarishini ko'rsatadi.

### 3. Audit jarayonidagi afzalliklari

Audit jarayonini raqamlashtirish va avtomatlashtirish bugungi kunda auditorlar uchun bir qator afzalliklarni taqdim etadi. Ushbu dastur auditorlik ishlarini soddalashtirish, tezlashtirish va aniqliq tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Quyida ushbu dastur orqali qo'lga kiritiladigan asosiy afzalliklar batafsil yoritiladi:

1. Aniqlik va xatolarni kamaytirish. Audit jarayonlarida inson omilidan kelib chiqadigan xatolar sezilarli darajada kamayadi, chunki dastur avtomatik tarzda hisob-kitoblar olib boradi. An'anaviy usulda auditorlar turli moliyaviy ma'lumotlarni qo'lda kiritishlari yoki hisoblashlari talab etiladi. Bu esa vaqt o'tishi bilan katta hajmdagi ma'lumotlar ichida noaniqlik va xatolarga olib kelishi mumkin. Raqamlashtirilgan audit jarayonida esa dastur ma'lumotlarni avtomatik hisoblab, yuqori aniqlik bilan natijalarini taqdim etadi. Bu jarayon xatolarni kamaytirib, auditorlik ishlarining ishonchlilagini oshiradi.

2. Tezkorlik va ish unumdarligini oshirish. Dastur auditorlarga katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va hisoblash imkonini berib, audit jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtiradi. Ma'lumotlar avtomatik qayta ishlanganligi sababli auditorlar murakkab hisob-kitoblarini tez va samarali bajarishlari mumkin. Bu esa audit jarayonlarini an'anaviy usulga nisbatan sezilarli darajada samarador qiladi, va auditorlar ko'proq vaqtini tahlillarni chuqurlash va natijalarini baholashga ajratishlari mumkin bo'ladi.

3. Ma'lumotlarning shaffofligi va kuzatuv qilish imkoniyati. Ushbu dastur ma'lumotlarni raqamli formatda qayta ishlaydi va saqlaydi, bu esa audit jarayonlarining shaffofligini ta'minlaydi. Audit davomida yaratilgan har bir natija saqlanadi va keyingi tahlillar uchun oson topiladi. Bu

shaffoflik auditorlarga o‘z ishlarini qayta ko‘rib chiqish, xatoliklarni aniqlash va ishonchliligin ta’minalash imkonini beradi. Ma'lumotlarning raqamli saqlanishi esa jarayonni yanada kuzatuvchan va nazorat qilinadigan holga keltiradi.

4. Audit xavfini kamaytirish. Dastur orqali amalga oshiriladigan raqamlashtirilgan audit jarayoni audit xavfini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi. Auditorlik sohasida xavf omillari turli sabablarga ko‘ra yuzaga kelishi mumkin, masalan, xato va noaniqliklar, noto‘g‘ri ma'lumotlar yoki ma'lumotlar yangilanishidagi kechikishlar. Ushbu dastur inson omilini kamaytirib, hisob-kitoblarni avtomatik ravishda bajaradi, bu esa auditorlik xavfini minimal darajaga tushiradi.

5. Moliyaviy ma'lumotlarning barqarorligi va davomiyligi. Dasturda auditorlik jarayonlari davomida yaratilgan ma'lumotlar raqamli formatda saqlanadi, bu esa ma'lumotlarning barqarorligi va davomiyligini ta’minalaydi. An'anaviy qo‘lda yuritiladigan tizimlarda ma'lumotlarning yo‘qolishi yoki noto‘g‘ri saqlanishi xavfi mavjud bo‘lsa, raqamlashtirilgan jarayonda bu muammo bartaraf etiladi. Natijada ma'lumotlar bir joyda tartibli saqlanib, audit jarayonlari uchun kelajakda foydalanishga qulay bo‘ladi.

6. Natijalarni oson hujjatlashtirish va saqlash imkoniyati. Dastur har bir bosqichda olingan natijalarni yangi Excel fayliga yozib, hujjatlashtirilgan holda saqlash imkoniyatini beradi. Bu auditorlarga natijalarni rasmiylashtirishda qulaylik yaratadi, shuningdek, audit jarayonidagi barcha ma'lumotlar yig‘ilib, yakuniy hisobot tayyorlash jarayonida yordam beradi. Ushbu xususiyat auditorlarga hujjatlarni rasmiylashtirish va saqlashni osonlashtiradi va audit jarayonining izchil va tizimli bo‘lishini ta’minalaydi.

7. Davlat talablari va normativlarga muvofiqlik. Mazkur dastur davlatning buxgalteriya hisobi va auditorlik faoliyatiga qo‘yilgan normativ hujjatlari bilan muvofiqlikda ishlab chiqilgan. Davlat talablariga muvofiq ravishda avtomatlashtirilgan tizim orqali ma'lumotlarning to‘g‘riligini ta’minalash, ularning ishonchliligin oshirish va audit jarayonini huquqiy jihatdan muvofiq qilish mumkin bo‘ladi. Shu tariqa, dastur audit jarayonining qonuniy talablar asosida amalga oshirilishini qo‘llab-quvvatlaydi.

8. Amortizatsiya hisob-kitoblarining osonlashishi. Dastur aktivlarning amortizatsiya hisobini avtomatik tarzda amalga oshiradi. Bu funksiyadan foydalangan holda auditorlar aktivlarning qoldiq qiymatini yil oxirigacha aniq hisoblaydilar. Amortizatsiya hisob-kitoblarining avtomatlashtirilgan holda amalga oshirilishi auditorlarga hisoblash jarayonini osonlashtirib, moliyaviy hisobotlarning aniqligini ta’minalash imkonini beradi. Shuningdek, bu funksiya moliyaviy hisob-kitoblarining sifatini oshirishga yordam beradi, chunki amortizatsiya jarayoni hisoblashdagi xatolardan himoyalangan bo‘ladi.

9. Moslashuvchanlik va integratsiya qobiliyati. Dastur turli moliyaviy tizimlar va boshqa raqamlashtirilgan tizimlar bilan integratsiya qilish imkoniyatiga ega. Auditorlar o‘z faoliyatlarida ma'lumotlarni turli formatlarda qabul qilishlari mumkin va ushbu dastur Excel kabi keng tarqalgan formatlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Bu esa audit jarayonida turli xil manbalardan olingan ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash imkonini yaratadi va auditorlar uchun moslashuvchan ish muhitini ta’minalaydi.

10. Qayta ishslash va tahlil qilishga imkoniyat yaratish. Audit jarayonida auditorlar ma'lumotlarni qayta ishslash va tahlil qilishga ehtiyoj sezadi. Ushbu dastur orqali ma'lumotlarni qayta ishslash va tahlil qilish imkoniyati mavjud bo‘lib, auditorlar zaruriy o‘zgarishlarni kiritishlari yoki dastlabki hisob-kitoblarni chuqurroq o‘rganishlari mumkin. Bu esa auditorlarga mavjud ma'lumotlardan to‘liq foydalanish va ularni chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Yuqoridagi afzalliklar ushbu dasturiy ta’mintonning auditorlik sohasida qanday katta hissa qo‘shishi mumkinligini ko‘rsatadi. Raqamlashtirilgan va avtomatlashtirilgan audit jarayoni auditorlarga tezlik, aniqlik va ishonchlilikni oshirish imkonini beradi. Dastur nafaqat auditorlarning ish jarayonini yengillashtiradi, balki audit jarayonini davlat talablariga mos ravishda huquqiy jihatdan rasmiylashtirish imkonini ham yaratadi. Shu tariqa, mazkur dastur auditorlar uchun yuqori sifatli va samarali audit faoliyatini ta’minalaydi va audit jarayonini yangi bosqichga ko‘tarishga yordam beradi.

## Xulosa

Raqamlashtirish jarayonlari auditorlik faoliyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda, va bu o'z navbatida audit jarayonining samaradorligi va aniqligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada taqdim etilgan dastur audit jarayonlarini avtomatlashtirish va amortizatsiya hisobini raqamli yondashuv orqali bajarishga mo'ljallangan. Dastur avtomatik hisob-kitoblarni amalga oshirib, auditorlik faoliyatida aniqlikni oshirish, vaqt va resurslarni tejash, shuningdek, audit xavfini kamaytirish imkonini beradi.

Mazkur dastur inson omilidan kelib chiqadigan xatolarni sezilarli darajada kamaytiradi va auditorlarga tezkor tahlil imkonini taqdim etadi. Ma'lumotlarni tezkor saqlash va qayta ishslash orqali dastur audit jarayonining shaffofligini ta'minlab, audit hisobotlarini rasmiylashtirishda katta yutuqlarga erishish imkonini beradi. Shuningdek, dastur davlatning amaldagi normativ hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, bu moliyaviy hisobotlarning davlat talablariga mos kelishini ta'minlaydi.

Auditda raqamlashtirish va avtomatlashtirish kelajakda audit sifatini oshirish va auditorlik jarayonini yanada ishonchli qilish uchun muhim qadamdir. Mazkur dastur o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarib, audit jarayonini yuqori sifat va samaradorlik bilan olib borish imkonini yaratadi. Audit jarayonini zamонавиу texnologiyalar orqali yanada takomillashtirish orqali bu sohada yanada yuqori natijalarga erishish mumkin bo'ladi.

### 5. Avtomatlashtirilgan audit jarayonlarining huquqiy va etik jihatlari

Audit jarayonlarini avtomatlashtirish ko'plab afzalliklarni taqdim etsa-da, ushbu jarayonlarda huquqiy va etik masalalarga e'tibor berish lozim. Raqamlashtirish jarayonlarida auditorlik ishlarining qonuniyligini ta'minlash va shaffoflikka rioya qilish muhim sanaladi. Ushbu bo'limda avtomatlashtirilgan auditning huquqiy talablari va etik masalalar yoritiladi.

Audit jarayonlarini avtomatlashtirish jarayonida huquqiy talablar va auditorlarning mas'uliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamlashtirish va avtomatlashtirish texnologiyalari tezkorlik va samaradorlikni oshirishi bilan birga, ushbu texnologiyalarni qo'llashda qonuniy me'yordarga qat'iy ryoja qilishni talab etadi. Bu talablar auditorlar uchun avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanganda muayyan huquqiy mas'uliyatlarni yuklaydi va ularning vazifalarini kengaytiradi.

Birinchidan, auditorlar ishlayotgan davlatning amaldagi qonunchilagini to'liq tushunishlari va unga amal qilishlari lozim. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni buxgalteriya va auditorlik faoliyatida raqamli va avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanishni tavsiya etadi va ular uchun huquqiy asos yaratadi. Ushbu qonunda auditorlar moliyaviy hisobotlarni to'g'ri va ishonchli ma'lumotlar asosida tayyorlashlari, raqamlashtirilgan ma'lumotlarning aniqligini nazorat qilishlari va hisobotlar davlat talablariga muvofiq bo'lishini ta'minlashlari kerakligi belgilangan. Buning uchun auditorlar avtomatlashtirilgan jarayonlarni huquqiy asosda ishlashini ta'minlash maqsadida doimiy ravishda ularni kuzatib borishlari zarur.

Ikkinchidan, avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish auditorlarga ancha qulayliklar yaratib bersa-da, bu tizimlarning ishonchlilagini va to'g'ri ishlashini ta'minlash auditorlarning mas'uliyatidir. Ular tizimni tekshirishda va kerak bo'lganda o'z vaqtida texnik xizmat ko'rsatishda yordam berishlari kerak. Bunday xizmatlarga tizimdagি ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash, ulardan noto'g'ri foydalanishni oldini olish va avtomatlashtirilgan hisob-kitoblarning qonunchilikka mos bo'lishini kafolatlash kiradi. Auditorlar tizim orqali kiritilgan va qayta ishlangan har bir ma'lumotning qonuniyligini ta'minlash uchun javobgardirlar.

Shuningdek, avtomatlashtirilgan audit tizimlarida ma'lumotlarni himoyalash ham huquqiy talablardan biridir. Ma'lumotlarni saqlash va uzatishda shaxsiy va maxfiy ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash zarur. Auditorlar foydalanayotgan raqamli platformalarda ma'lumotlarni himoyalash mexanizmlari to'liq joriy etilgan bo'lishi kerak. Bu qonunchilik talablari axborot texnologiyalarini qo'llashda yuzaga keladigan xavflarni oldini olish va auditorlik ma'lumotlarini qonuniy tartibda himoya qilishga qaratilgan. Ma'lumotlarni himoyalashga oid talablar buzilgan taqdirda auditorlar qonuniy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Nihoyat, huquqiy talablar auditorlardan avtomatlashtirilgan tizim orqali amalga oshirilgan hisob-kitoblarni hujjatlashtirish va arxivlashni talab qiladi. Har bir hisob-kitob va audit jarayoni izchil yozib borilishi kerak, chunki huquqiy tartibotlarga ko‘ra, bu hujjatlar kelajakda tekshirilishi yoki huquqiy kelishmovchiliklarda asosiy dalil bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Auditorlar avtomatlashtirilgan jarayonlar uchun barcha kerakli hujjatlarni tayyorlash va saqlashda javobgar bo‘lib, ular bu jarayonlarning izchil va qonunchilikka mos tarzda bajarilganini ta’minlashlari kerak. Shu orqali avtomatlashtirilgan audit jarayonlari nafaqat tezkor va samarali, balki huquqiy jihatdan ham asoslangan va himoyalangan bo‘lib, audit jarayonining sifatini oshiradi.

Mazkur talablar auditorlarning mas’uliyatlarini kengaytiradi va ularga huquqiy nuqtai nazardan yanada qat’iy tartib-qoidalarni taqozo qiladi. Auditorlar raqamlashtirish jarayonida nafaqat texnik, balki huquqiy mas’uliyatni ham o‘z zimmasiga olishlari lozim bo‘ladi.

Auditorlar avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida katta hajmdagi moliyaviy ma'lumotlarga ega bo‘lishadi. Ushbu ma'lumotlarning maxfiyligi va ularni noto‘g‘ri ishlashidan himoyalanishini ta’minalash zarur. Ma'lumotlarni himoya qilishda zamonaviy kriptografiya va xavfsizlik texnologiyalaridan foydalanish talab etiladi, chunki maxfiy ma'lumotlarning tarqalib ketishi auditorlik xizmatlariga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Audit jarayonida avtomatlashtirish orqali auditorlar ish jarayonlarini tezlashtiradilar, ammo bu jarayonda shaffoflikni ta’minalash va aniq hisob-kitoblarga asoslangan xulosalar qilish muhimdir. Etik me'yorlarga ko‘ra, auditorlar o‘z faoliyatlarini halol va adolatli bajarishlari shart. Avtomatlashtirilgan tizimlarda noto‘g‘ri ma'lumotlar yoki xatolar tufayli yuzaga kelgan qarorlar auditorning ishonchiligidagi ta’sir qilishi mumkin.

Avtomatlashtirish jarayonida inson omilining kamayishi bilan birga auditorning mas’uliyatlari o‘zgaradi. Auditorlar nafaqat ma'lumotlarni tahlil qilish, balki avtomatlashtirilgan tizimlarning to‘g‘ri ishlashini nazorat qilishlari kerak. Bunda auditorning roli texnik va huquqiy jihatlarni nazorat qilish bilan birga, tizimning ishlashidagi etik qoidalarga rioya qilishni ham o‘z ichiga oladi.

Avtomatlashtirilgan auditda ma'lumotlarni avtomatik qayta ishslash natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatolar va noaniqliklar bilan ishslashda auditorlarning etik jihatdan mas’uliyatini oshirish muhimdir. Auditorlar har bir natijani tekshirib, jarayonda yuzaga kelgan noaniqliklarni bartaraf etish uchun maxsus metodologiyalar va standartlardan foydalanishlari lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Дьяконов, Роман Вячеславович. Анализ аудиторских рисков в условиях применения компьютерных технологий. Diss. Саратовский гос. социально-экон. ун-т, 2000.
2. Frykenberger, Robin. Digitaliseringens påverkan på revisionen: Vilken påverkan har digitaliseringen haft på revisionsmetodiken och revisionskvaliteten? (2019).
3. Shukurovich, M. M. “Problems Of Management Of Multiple Apartment Houses By Direct Owners.” JournalNX, vol. 6, no. 07, pp. 347-350.
4. Shukurovich M. M. et al. BYUDJET TASHKILOTLARINING BUDJETDAN TASHQARI MABLAG’LARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARDAN FOYDALANISH //MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS. – 2023. – Т. 7. – №. 7. – С. 52-56.
5. Shukurovich M. M. et al. PROBLEMS OF PRODUCTION OF EXTRA-BUDGETARY FUNDS IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND THEIR SOLUTIONS //Conferencea. – 2022. – С. 50-53.
6. Shukurovich M. M., Ugli A. F. F. Transformation of accounting of main means in water enterprises based on international standards //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 12. – №. 7. – С. 50-57.
7. O‘zbekiston Respublikasi. "Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida"gi qonun, 2021-yil 30-iyul. [Lex.uz](<https://lex.uz/docs/-813666?ONDATE=30.07.2021>).
8. O‘zbekiston Respublikasi. "Auditorlik faoliyati to‘g‘risida"gi qonun, 2022-yil 5-aprel. [Lex.uz](<https://lex.uz/uz/docs/-366821?ONDATE=05.04.2022>).